

АКТЫОРЛИК МАНОРАТИДА СТАНИСЛАВСКИЙ СИСТЕМАСИНING О'РНИ

Najmiddinova Sarvara Samariddinovna

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona
Mintaqaviy filialining Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi*
najmiddinovasarvara@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada, teatr san'atining aktyorlik mahoratida K.S. Stanislavskiy etikasi va sistemasi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Teatr, spektakl, aktyor, dramaturg, san'at, Stanislavskiy.

Bugungi kunda aktyorlik san'ati uchun maktab bo'lib hizmat qilayotgan Stanislavskiy sistemasi chinakam aktyorlarni chiqarmoqda. Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy teatr hayotini o'zining tajribalari asosida mukammal darajada yoritib bera oldi.

Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy (Alekseyev) 1863 yilning 17 yanvarida Moskvada san'atsevar savdogar oilasida dunyoga keldi. Stanislavskiy bolaligidanoq tearga alohida mehr qo'ydi. O'z tengdoshlari qatori ko'chada bekorchilikda yurmas, balki kitob o'qir, tear yoki muzeyga borar edi. Bunga sabab ularning oilasiga o'sha davrdagi Moskvaning yetakchi ilgor doirasiga kiruvchi ziyolilar tez-tez tashrif buyurishar, mehmonlar davrasidagi suhbatda yosh Konstantin ham ishtirok etar edi. Rasmlar galereyasi tashkilotchisi P.M.Tretyakov teatr va muzey tashkilotchisi S.I.Mamontov, kitob noshiri M.V.Sabashnikov suhbatlarini tinglagan Konstantin suhbat jarayonidagi voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rishni hohlar edi. Shu sabab, o'z akasi Vladimir bilan ota-onasi rahnomaligida tearga tez-tez borib turar edi. Oilaning tearga bolgan muhabbati Stanislavskiy bolaligidanoq o'ziga rom etib, butun umini shu sohaga bashida etishiga sabab bo'ldi. Teatr san'ati sohasida xususiy faoliyat imkoniyatlarining eng nodir va eng samarali namunasi 1898 yili ish boshlagan Moskva badiiy-hammabop teatr qiyofasida namoyon bo'ldi. Bu teatr barcha xususiy teatrlar diqqat markazida bo'lgan kommersiya maqsadlarini emas, balki rus milliy ma'naviyati va juda katta mavqega ega bo'lgan tear san'atini yangi ijodiy yo'lga olib chiqish edi. Moskva Badily teatri (MXT) 1898 yil 14 oktabrda «Podsho Fyodor Ioannovich» spektakli premyerasi bilan ochildi.¹

"MXTning tug ilishi uning asoschilarining 1897 yil 19 iyunda Moskvadagi «Slavyanskiy bazar» restoranida bo'lib o'tgan tarixiy uchrashuvlarida ro'y bergan deb hisoblanadi. K.S.Stanislavskiy (Alekseyev) va Vl. I.Nemirovich-Danchenko 18 soat davom etgan suhbatlarida bo lajak teatring barcha xususiyatlari chuqur muhokama

¹ Rasulov Shavkat Shuxratovich. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2020

qilinadi. Stanislavskiy so'zlariga ko'ra uchrashuvda «bo'lajak ish asoslari, san'atning o'ziga xos masalalari, badily ideallar, sahnaviy etika, texnika, tashkiliy rejalar, bo'g'usi repertuar yo'nalishlari, o' zaro munosabatlar» muhokama etilgan. Suhbat davomida bolg'usi ijodiy truppa tarkibi, uning yosh ziyolilardan iborat bo ladigan asosi, zalni did bilan, ammo odmi bezatilishi masalalari ham diggat bilan ko rib chiqildi. Tearga rahbarlik vakolatlari va tear faoliyati mazmunini belgilovchi shiorlar ham o'z tasdig'ini topadi. Adabiy-badiiy xukm chiqarish huquqi VI.I.Nemirovich-Danchenko, badiiy xukm chiqarish xuquqi Stanislavskiyga berildi. Asosiy shiorlardan biri - «Bugun - Gamlet, ertaga statist, ammo statist sifatida ham u artist bo'lmog'i shart!» edi. Teatr repertuariga kiritiladigan yozuvchi-mualliflar doirasi ham aniq belgilanadi. Bular birinchi galda G.Ibsen, G.Gauptman, A. Chexov milliy hamda jahon mumtoz dramaturglari edi»²

Stanslavskiy sistemasida hayotiy haqiqat va oliy maqsad muhim o'rin egallaydi. Aktyorga berilgan ro'ning qanday ijro etishi "Agarda" tushunchasi orqali o'z dunyosidan ijro ettayotgan ro'liga o'tish asosiy vazifa hisoblanadi. Shuningdek, aktyor va rejissyor uchun "Stanslavskiy sistemasi" ning tamoyillari mavjud. Quyida esa ushbu tamoyillar berilgan.

1. Hayotiy haqiqat.
2. Oliy maqsad.
3. Faollik va yetakchi xatti-harakat.
4. Tabiiylik tamoyili.
5. Aktyorning obrazda yashash tamoyili.

K.S.Stanislavskiy sistemasining aktyorlar tarbiyasidagi ahamiyati - K.S.Stanislavskiy umi mobaynida bor kuch-qudratini san'atga, xususan tear san' atini rivolantirish, professional teatr yaratish maqsadida sarf gildi. Nafaqat rus teatri tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini, balki jahon teatri rejissurasi, undagi aktyorlar faoliyati bilan keng tanishdi. Hamkorlikda bir gancha spektakllar yaratdi. O'z ijodiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyatlarini, bajargan ishlarini xotirlab 8 tomdan iborat memuar teatr asarlarini yaratib, mazkur asarlari orqali o'z sistemasining mohiyatini tushuntirishga harakat qilgan. U yaratgan "sistema" -realistik san'at bo'lib, barcha aktyorlik va rejissyorlik maktablarining asosiga aylandi. Ushbu sistemada bir qancha artistik avlodlarning tajribasi umumlashirilib, zamonaviy teatr estetikasining asosiy qirralari shakllangan. Shu tufayli uning ijodiy g'oyalari, estetik dasturi butun jahonda tan olindi.

Uning estetik garashlari va novatorligi faqatgina teatr bilangina chegaralanmay, balki ijodiy jarayon hagidagi g'oyalari badiiy ijodiyotning barcha yo'nalishlarida qo'llanib kelinmoqda. Estetikaning umumiy masalalarini yechishda, badiiy ijodiyotning psixologiyasini ochib berib, jodiy jarayonni ganday egallash, inson ma'

² Sayfullayev B. S. Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2012. Fan va texnologiya.

naviy hayotiga qanday kirib borishning yo'llarini ko'rsatib beradi. "Stanislavskiy o'zidagi ijodiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida sahna san'ati asosining sirlarini chuqur o'rganishga kirishadi. 1900 yil aktyor ijodini organishga bag'ishlangan ta'limni, Yani o'zining sistemasini (Stanislavskiy sistemasini) yaratdi. U o'zining sistemasi bilan aktyorlarni marionetkaga aylantirib, haqqoniy haqiqatni sahnadan haydayotgan ba'zi dekadent-rejissyorlarga garshi chigib, realistik sahna san'atini rivojlantirib, insonning ichki dunyosini to'liq ochib beradigan yangi aktyorlik uslublari va texnikasini namoyish etdi. 1912 yil Stanislavskiy, L.A.Sulerjitskiy bilan hamkorlikda, o'z sistemasidagi g'oyalarni muqimlashtirib, rivojlantirish uchun MXT-1 studiyasini tashkil etdi. Keyinchalik bu studiyadan ko'plab mashhur aktyorlar va rejissyorlar yetishib chiqdi"³

Umuman olganda, K. S. Stanislavskiy. Teatr san'ati uchun yozib qoldirgan "Stanislavskiy sistemasini" orqali aktyorlar orasidagi bo'rtirib yuborish, soxtalik, bachkanalikni farqlab berdi va hayotiy ro'l ijro etishni ochib berdi. Ushbu maktabdan ilm olgan har qanday bo'lajak aktyorlar, albatta, san'at sohasida o'z o'rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov Shavkat Shuxratovich. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2020
2. Sayfullayev. B.S. Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2012
3. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Toshkent-2008
4. M. Qodirov. O'zbek teatri tarixi. Toshkent-2003
5. K. S. Stanislavskiy. Aktyorning o'z ustida ishlashi. Toshkent-2010
6. Usmonov R. Rejissura. Toshkent-1997

³ Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Toshkent. Aloqachi-2008. 22-23-betlar.